

Plastik kartaga xizmat ko‘rsatish va undan foydalanish haqida
ShARTNOMA

20__ yil “__” _____

№_____

_____ shahri

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankingin filiali (keyingi o‘rinlarda – Bank) boshqaruvchisi Nizom va Ishonchnoma asosida faoliyat yuritib, bir tomonidan, va jismoniy shaxs (keyingi o‘rinlarda – Mijoz), ikkinchi tomonidan, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdik.

1-§. Shartnoma predmeti

1. Mijoz tomonidan belgilangan tartibda ko‘rsatilgan xizmat va mahsulotlar uchun plastik karta orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha Bank xizmatlaridan foydalanish yuzasidan Bank va Mijoz o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.
2. Plastik karta Mijozga savdo va servis xizmati ko‘rsatish joylarida tovar va xizmatlar uchun hisob-kitobni amalga oshirish huquqini beradi.
3. Plastik karta, Mijoz tomonidan jismoniy shaxs plastik kartasini olish uchun ariza to‘ldirilgan va Bank tarifiga muvofiq plastik kartadan foydalanish uchun to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng, muomalaga chiqariladi.
4. Plastik karta amal qilish muddati davomida Bankning mulki hisoblanadi, u amal qilish muddati tugagandan so‘ng yoki almashtirilganda yoxud Bank talabi bo‘yicha Bankka qaytarilishi lozim.

2-§. Tomonlarning huquq va majburiyatları

5. Bank quyidagi huquqlarga ega:
 - a) Mijoz tomondan ushbu Shartnoma va plastik kartadan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalar shartlari buzilganda plastik kartaning amal qilishini to‘xtatish;
 - b) O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan hollarda plastik kartaning amal qilishini to‘xtatish.
 - v) plastik kartadan foydalanishga oid Bank tariflariga qo‘srimcha va/yoki o‘zgartirishlarni, ular kuchga kiritilishidan bir oy oldin bu haqda tegishli axborotni, shuningdek ushbu Shartnoma yuzasidan qo‘srimcha bitim loyihasini www.trustbank.uz veb-sayti va Bank filiali binosida joylashtirish orqali Mijozni ogohlantirib, kiritish. Agar ushbu qo‘srimcha va/yoki o‘zgartirishlar kuchga kiritiladigan sanagacha Mijoz tomonidan imzolangan qo‘srimcha bitim yoki uni imzolashdan bosh tortganligi haqida yozma xabar Bankka taqdim qilinmasa, bu hol O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 366-moddasiga muvofiq Bank tariflariga kiritilayotgan qo‘srimchalar va/yoki o‘zgartirishlarga Mijozning to‘la roziligini bildiradi.
6. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:
 - a) plastik karta maxsus hisobvarag‘iga mablag‘ o‘z vaqtida kirish qilinishini Bankdan talab qilish;
 - b) plastik karta maxsus hisobvarag‘ini cheklanmagan miqdorda mablag‘ bilan to‘ldirish;
 - v) plastik karta maxsus hisobvarag‘idagi aylanmalar bo‘yicha ko‘chirmalar olish.
7. Bank quyidagi majburiyatlarni o‘z zimmasiga oladi:
 - a) Mijozga, u tomonidan plastik karta olish uchun ariza berilgandan so‘ng, plastik karta maxsus hisobvarag‘i ochish;
 - b) Mijozga uning talabi bo‘yicha plastik karta maxsus hisobvarag‘ining holatiga oid ko‘chirmani taqdim qilish;
 - g) Mijozdan “on-layn” plastik kartaning yo‘qotilanligi to‘g‘risida ariza olingandan so‘ng, ariza tushgan paytdan ushbu plastik karta bo‘yicha operatsiyalar amalga oshirilishini to‘xtatish;
 - e) Bank tariflari asosida plastik karta maxsus hisobvarag‘idagi qoldiq summaga foiz hisoblash.

8. Mijoz o‘z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

- a) plastik kartani olgandan so‘ng uning PIN-kodini o‘zgartirish va o‘z PIN-kodini begona shaxslarga oshkor etmaslik;
- b) Bank tariflari asosida plastik kartaga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Bankning barcha xizmatlari uchun to‘lovnii amalga oshirish;
- v) ishdan bo‘shayotganda yoki o‘qishni tugatganda Bankka plastik kartani bir ish kuni davomida qaytarib berish.

3-§. Tomonlarning javobgarligi

9. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanmaydi:

- a) Mijozdan ijozat olmay legitim PIN-kod orqali plastik karta ishlatalganligi uchun;
- b) jo‘natuvchi-bank tomonidan pul mablag‘ining ushlab qoliganligi sababli uni Mijozning plastik karta maxsus hisobvarag‘iga o‘tkazmaganligi uchun.

9-1. Bank quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- a) Mijozga u talab etgan hajmda xizmat ko‘rsatilmaganligi uchun;
- b) Mijozga xizmat ko‘rsatish asossiz rad etilganligi uchun.

10. Mijoz quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- b) agar “on-layn” plastik karta yo‘qotilgan bo‘lsa, Mijoz bu haqida Bankka yozma murojaat qilingunga qadar o‘tkazilgan barcha tranzaksiyalar bo‘yicha.

4-§. Shartnomaning amal qilish muddati

11. Mazkur shartnomaga 1 (bir) yil muddatga tuzildi, agar uning muddati tugashidan eng kamida bir oy oldin tomonlardan hech kim ushbu shartnomani bekor qilish to‘g‘risida yozma tarzda xabar bermagan holda, uning muddati keyingi davrga uzaytirilgan hisoblanadi.

12. Mazkur shartnomaga uni tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

13. Shartnomaga bekor qilinganda yoki plastik kartadan foydalanish muddati tugaganda, Mijoz plastik kartani Bankka qaytarib berishi shart.

5-§. Shartnomaga qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritish

14. Shartnomaga kiritiladigan barcha qo‘srimcha va o‘zgartirishlar tomonlar o‘rtasida yozma ravishda kelishilgan bo‘lishi lozim, ushbu Shartnomaga 5-bandining “v” kichik bandiga muvofiq kiritiladigan qo‘srimcha va/yoki o‘zgartirishlar bundan mustasno.

6-§. Shartnomani bekor qilish

15. Tomonlar ushbu shartnomani, bir-birlariga bir oy oldin yozma xabar bergen holda, bekor qilishi mumkin.

16. Shartnomaga Mijozning tashabbusiga ko‘ra bekor qilinganda, u ushbu shartnomaga bekor qilgunga qadar va bekor qilingandan keyin, agar plastik karta Bankka qaytarilmagan bo‘lsa, o‘tkazilgan barcha tranzaksiyalar bo‘yicha to‘liq javobgar hisoblanadi.

17. Shartnomaga bekor qilinganda Bank Mijozning plastik karta maxsus hisobvarag‘ini yopadi, undagi qoldiq summani Mijozning arizasiga ko‘ra naqd pulda beradi yoki ko‘rsatilgan hisobvaraqqqa o‘tkazadi.

7-§. Nizolarni hal qilish

18. Barcha kelishmovchilik va nizolarni tomonlar muzokara yo‘li bilan hal etadi. Muzokara natijasida tomonlar o‘zaro kelishuvga erisha olmagan taqdirda, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibida hal qilinadi.

8-§. Yakuniy qoidalar

19. Shartnomaga bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nus’hada tuzildi, uning bir nus’hasi Bankda, ikkinchi nus’hasi Mijozda saqlanadi.

20. Shartnomaga muvofiq tarzda yoki unga bog'liq holda yuborilgan barcha xat va xabarnomalar yozma tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi shart va ular tomonlarning quyida ko'rsatilgan manzillari bo'yicha buyurtma xat orqali yuborilgan yoki shaxsan yetkazilgan hamda ularni olganlik to'g'risida tasdiqnoma mavjud bo'lsa, ular belgilangan tartibda taqdim etilgan hisoblanadi.

21. Mazkur shartnoma bilan belgilanmagan barcha holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tarzda ish olib boradi.

7-§. Tomonlarning pochta manzili va rekvizitlari

Bank:	Mijoz:
Manzili: _____	Manzili: _____
Tel.: _____ Faks: _____	Telefon: _____
Bank kodi: _____	Pasport, seriya ____ №_____
Bank hisobvarag'i: _____	Qachon va kim tomonidan berilgan _____
STIR: _____	(imzo)
Boshqaruvchi: _____ _____ _____	
Muhr	